

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING MA'MURIY CHEKLASH
CHORALARINI QO'LLASH FAOLIYATI**

GADOYMURODOV BEKZOD OBIDJON O'G'LI

IIV AKADEMIYASI O'QITUVCHISI

ABDUHAKIMOV OYBEK ABZAL O'G'LI

IIV AKADEMIYASI KURSANTI

Annotatsiya: Mazkur maqolada profilaktika inspektorlarining jinoyatchilikning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni, xususan, ularning ma'muriy cheklash choralarini qo'llash faoliyati keng yoritilgan. Maqola dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo'lib, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida profilaktika inspektorlarining huquqiy maqomi, ularning vakolatlari, qonunchilikda belgilangan tartibda fuqarolarga nisbatan qo'llaniladigan ma'muriy cheklov choralarining mazmuni va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Profilaktika inspektorlarining faoliyati "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeks, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonun, shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksi kabi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Maqolada aynan shu qonunchilik asosida inspektorlarning vakolatlarini amalga oshirish mexanizmlari, ularning xizmat vazifalari doirasida ma'muriy cheklov choralarini qo'llashdagi muammolar, mavjud to'siqlar, amaliy tajriba va sud-huquq amaliyotidagi holatlar tahlil qilinadi. Ma'muriy cheklov choralari sifatida fuqaroga yashash joyini tark etmaslik, muayyan shaxslar bilan muloqotda bo'lmaslik, ma'lum joylarga bormaslik, spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaslik kabi choralar qo'llanishi mumkin. Ushbu choralar, bir tomondan, huquqbuzarliklarning oldini olish, ikkinchi tomondan esa, shaxsning erkinliklarini asossiz cheklamaslikka qaratilgan. Shuning uchun maqolada ushbu choralarni qo'llashda qonuniylik, asoslanganlik, maqsadga muvofiqlik kabi prinsiplarning rioya etilishi muhimligi ta'kidlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ba'zi hollarda profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy cheklov choralari noto'g'ri yoki asossiz qo'llanilishi holatlari kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat

inson huquqlarining buzilishiga, balki jamiyatda ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Shu munosabat bilan maqolada bu boradagi nazorat va javobgarlik mexanizmlari, shuningdek, profilaktika inspektorlarini kasbiy tayyorlashni takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, ma'muriy cheklov, ma'muriy choralari, huquqbuzarliklarning oldini olish, ichki ishlar organlari, huquqiy ta'sir choralari, tergovga qadar tekshiruv, huquqiy tartibot, jamoat xavfsizligi, ma'muriy ish yuritish, jinoyatchilik profilaktikasi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy mexanizmlar, ijtimoiy nazorat, fuqarolarning huquq va erkinliklari, ogohlantiruvchi yondashuv, kriminogen vaziyat, prevensiya choralari, jamoatchilik bilan hamkorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность инспекторов профилактики в обеспечении общественной безопасности и предупреждении правонарушений, в частности — их роль в применении административных ограничительных мер. Статья посвящена актуальной теме и раскрывает правовой статус инспекторов профилактики в системе профилактики правонарушений, их полномочия, а также содержание и эффективность административных ограничений, применяемых к гражданам в соответствии с законодательством. Деятельность инспекторов регламентируется Кодексом об административной ответственности, Законом "Об органах внутренних дел", Уголовно-процессуальным кодексом и другими нормативно-правовыми актами. В статье проводится анализ практических механизмов реализации полномочий, трудностей в процессе применения административных мер, а также рассматриваются конкретные случаи из практики судопроизводства и работы правоохранительных органов. К числу административных ограничительных мер относятся: запрет покидать место жительства, контактировать с определёнными лицами, посещать определённые места, употреблять алкогольные напитки и др. Эти меры направлены как на предотвращение правонарушений, так и на защиту прав и свобод граждан от необоснованного вмешательства. В связи с этим подчёркивается важность соблюдения принципов законности,

обоснованности и целесообразности при их применении. Анализ показывает, что в ряде случаев меры применяются необоснованно или с нарушением прав граждан, что негативно влияет на общественное доверие к органам внутренних дел. В статье также поднимаются вопросы контроля, ответственности должностных лиц и необходимости повышения профессионального уровня инспекторов профилактики.

Ключевые слова: *Инспектор профилактики, административные ограничения, административные меры, профилактика правонарушений, органы внутренних дел, правовые меры воздействия, доследственная проверка, правопорядок, общественная безопасность, административное производство, профилактика преступности, нормативно-правовые акты, правовые механизмы, общественный контроль, права и свободы граждан, предупредительный подход, криминогенная обстановка, меры превенции, взаимодействие с общественностью.*

Abstract: *This article explores the role of prevention inspectors in maintaining public safety and preventing offenses, focusing in particular on their activity related to the application of administrative restriction measures. The topic is highly relevant, as it addresses the legal status of prevention inspectors within the crime prevention system, their powers, and the nature and effectiveness of administrative restrictions applied to citizens according to current legislation. The inspectors' duties are carried out in accordance with legal frameworks such as the Administrative Responsibility Code, the Law "On Internal Affairs Bodies," and the Criminal Procedure Code. The article analyzes practical mechanisms of implementing these powers, challenges encountered in applying administrative measures, and examines case studies from law enforcement and judicial practices. Administrative restrictions may include prohibiting a person from leaving their residence, communicating with certain individuals, visiting specific places, or consuming alcoholic beverages. These measures aim both to prevent offenses and to ensure individual rights and freedoms are not unjustifiably restricted. Therefore, the article emphasizes the importance of legality, justification, and proportionality in*

applying such restrictions. Analyses show that in some instances, administrative restrictions are applied incorrectly or without sufficient grounds, leading to violations of individual rights and decreased public trust in law enforcement. Accordingly, the article highlights the importance of supervision, accountability mechanisms, and improved professional training for prevention inspectors.

Keywords: *Prevention inspector, administrative restrictions, administrative measures, prevention of offenses, internal affairs bodies, legal impact measures, pre-investigation check, legal order, public safety, administrative proceedings, crime prevention, regulatory legal acts, legal mechanisms, social control, rights and freedoms of citizens, preventive approach, criminogenic situation, prevention measures, cooperation with the public.*

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning muhim yoʻnalishlaridan biri bu — huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning xavfsizligini taʼminlash va jamoat tartibini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini takomillashtirishdir. Ushbu jarayonda ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yurituvchi profilaktika inspektorlarining oʻrni va roli beqiyosdir. Ular mahalla va hududlarda tinchlikni saqlash, jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy xavfli holatlarni aniqlash va bartaraf etish boʻyicha bevosita ish olib boruvchi eng muhim boʻgʻin sanaladi. Profilaktika inspektorining faoliyati koʻp qirrali va masʼuliyatli boʻlib, unda nazorat, ogohlantirish, tushuntirish va zarur hollarda maʼmuriy cheklov choralari qoʻllash kabi huquqiy mexanizmlar mavjud. Ayniqsa, jamiyatda kriminogen vaziyat murakkab boʻlgan sharoitlarda, ayrim fuqarolar tomonidan qonunbuzarlik holatlarining sodir etilishi ehtimoli yuqori boʻlganida, profilaktika inspektorlari tomonidan qoʻllaniladigan maʼmuriy cheklov choralari oʻz vaqtida va aniq boʻlishi lozim. Bu choralarning samaradorligi esa, ular qanday asosda, qanday qonuniy tartibda va qanday shaklda qoʻllanayotganiga bevosita bogʻliqdir. Shuni taʼkidlash joizki, maʼmuriy cheklov choralari qoʻllash jarayoni har doim ham sanksiyalash yoki jazolash sifatida emas, balki huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan profilaktik, ogohlantiruvchi taʼsir

vositasi sifatida qaralishi zarur. Chunki zamonaviy huquqiy davlat qurish jarayonida, har qanday ma'muriy chora inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan yondashgan holda qo'llanilishi kerak. Bu esa, profilaktika inspektorlarining nafaqat huquqiy bilimlarini, balki etik me'yorlarga rioya qilish, psixologik yondashuvni to'g'ri tanlash, jamoatchilik bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishini talab qiladi. O'zbekiston Respublikasida profilaktika inspektorlarining vakolatlari, ularning huquqiy maqomi, faoliyat yuritish tartibi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan. Jumladan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa qonunosti hujjatlar orqali inspektorlarning faoliyati huquqiy asosda tartibga solingan. Ushbu me'yorlar asosida profilaktika inspektorlari fuqarolarga nisbatan ma'muriy ta'sir choralari qo'llash vakolatiga ega bo'lib, ular orasida ma'muriy ogohlantirishlar, jamoat ishlarida ishtirok etishga majburiylik, vaqtinchalik harakat erkinligini cheklash kabi chora-tadbirlar mavjud. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ma'muriy cheklov choralari qo'llash jarayonida ayrim hollarda huquqiy asoslarning yetarlicha hisobga olinmasligi, choralarning haddan tashqari qo'llanilishi yoki inspektorlar tomonidan vakolat doirasidan chiqib ketilishi kabi holatlar ham uchray turadi. Bu esa nafaqat fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir qiladi, balki inson huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bugungi kunda profilaktika inspektorlarining ma'muriy cheklash choralari qo'llash faoliyatini tizimli ravishda o'rganish, uni tahlil qilish va takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining ma'muriy cheklash choralari qanday sharoitlarda va qanday tartibda qo'llashi, bu faoliyatning huquqiy asoslari, amaliy muammolari hamda takomillashtirish yo'llari yoritiladi. Mazkur mavzu nafaqat huquqshunos olimlar, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va jamoatchilik vakillari uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki ushbu yo'nalishdagi har qanday takomillashtirish fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash va jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish kabi yuksak maqsadlarga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Profilaktika inspektorlarining jinoyatchilikning oldini olishdagi o'zni beqiyos bo'lib, ularning ma'muriy cheklov choralari qo'llashdagi faoliyati jinoyatlarni erta aniqlash, ularni jilovlash hamda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu inspektorlar ichki ishlar organlari tizimida xizmat qiluvchi, jinoyatchilik profilaktikasini amalga oshiruvchi muhim bo'g'indir. Ular tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy choralar qonuniylik, adolat va maqsadga muvofiqlik tamoyillariga asoslanadi.

1. Ma'muriy cheklov choralarining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda profilaktika inspektorlariga jinoyatga moyil shaxslar ustidan nazoratni kuchaytirish, ularni ijtimoiy hayotga qaytarish bo'yicha keng vakolatlar berilgan. Xususan, MJtKning tegishli moddalari asosida profilaktika inspektori fuqaroga nisbatan ogohlantirish, ma'muriy jarima, majburiy jamoat ishlari, vaqtincha cheklovlar kabi choralarni qo'llashi mumkin. Ma'muriy cheklov choralarining eng muhim jihati — ularning profilaktik xarakterga ega bo'lishidir. Ya'ni, bu choralarning asosiy maqsadi — jinoyat sodir etilishining oldini olish, mavjud xavfni bartaraf etish, ijtimoiy muvozanatni saqlab qolishdir.

2. Profilaktika inspektorining vakolatlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari

Profilaktika inspektorlari quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradilar:

- Jinoyatga moyil shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish;
- Uy-joy, mahalla va boshqa ijtimoiy obyektlarda tekshiruvlar o'tkazish;
- Ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda, chora ko'rish;
- Probatsiya nazorati ostidagi shaxslar bilan ishlash;

- Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish.

Ushbu faoliyatlar doirasida profilaktika inspektori tomonidan qo'llanadigan ma'muriy cheklov choralariga shaxsni muayyan joyda bo'lish yoki bo'lmaslik majburiyati, jamoat joylariga tashrifni cheklash, alkogol iste'mol qilishni taqiqlash, belgilangan vaqtda uyda bo'lish majburiyati kabi chora-tadbirlar kiradi.

3. Amaliyotda uchraydigan muammolar

Ma'muriy cheklov choralarini qo'llashda bir qator amaliy muammolar mavjud:

- **Huquqiy savodxonlik darajasining pastligi:** Ayrim holatlarda fuqarolar o'zlariga nisbatan qo'llanilgan choralarning mazmuni va sabablari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaydi, bu esa ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Vaqt va resurslarning cheklanganligi: Profilaktika inspektorlarining yuklamasi ko'p bo'lganligi sababli, ular har bir holatga chuqur e'tibor qaratishga ulgurmaydi.

Tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda muammolar: Ba'zan boshqa ijtimoiy xizmatlar, masalan, sog'liqni saqlash yoki ta'lim muassasalari bilan hamkorlik sust kechadi. Bu esa cheklov choralarining samaradorligini pasaytiradi.

4. Samaradorlikni oshirish yo'llari

Profilaktika inspektorlarining ma'muriy cheklov choralarini qo'llash faoliyatining samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- **Malaka oshirish kurslarini tashkil etish:** Inspektorlar uchun amaliy mashg'ulotlar va huquqiy treninglar o'tkazish, zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan tanishtirish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Elektron ma'lumotlar bazasi, kuzatuv tizimlari va monitoring platformalarini keng joriy qilish.

Jamoatchilik bilan yaqin hamkorlik: Mahalla faollari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa ijtimoiy institutlar bilan birgalikda ishlash orqali fuqarolarning ishonchini oshirish.

- **Tahliliy yondashuvni kuchaytirish:** Har bir cheklov chorasining samaradorligini doimiy ravishda baholash, statistik va sotsiologik tahlillar asosida qarorlar qabul qilish.

Xulosa

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, profilaktika inspektorlarining ma'muriy cheklash choralarini qo'llashdagi faoliyati jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, aholi bilan bevosita muloqot qiluvchi va ularning ijtimoiy muhitdagi holatini doimiy kuzatuv ostiga oluvchi mutaxassis sifatida profilaktika inspektorlari tomonidan qo'llanilayotgan cheklov choralari profilaktik va tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. Mazkur faoliyatning samarali amalga oshirilishi uchun, eng avvalo, uning huquqiy asoslari mustahkam bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bu boradagi asosiy hujjatlar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ayrim hollarda ularning to'laqonli tatbiqi bilan bog'liq muammolar kuzatiladi. Masalan, ma'muriy cheklov choralarining qanday hollarda va qanday tartibda qo'llanilishi, ular ustidan nazoratning qanchalik ta'minlanishi borasida ayrim chalkashliklar yoki tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, huquqiy asoslarni yanada aniqlashtirish va amaliyotga moslashtirish zarur. Bundan tashqari, inspektorlarning o'z faoliyatini amalga oshirishda duch kelayotgan eng asosiy muammolardan biri — bu resurslar yetishmovchiligi. Ko'plab hududlarda inspektorlar katta sonli mahalla yoki xonadonlar bilan ishlashga majbur bo'lishmoqda, bu esa ularning faoliyatining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xizmat avtomobillari, aloqa vositalari, zamonaviy monitoring texnologiyalari kabi texnik vositalarning yetishmasligi inspektor ishining tezkorligini pasaytiradi. Shunday ekan, moddiy-texnik bazani mustahkamlash bu sohaning dolzarb muammolaridan biridir. Ma'muriy cheklov choralarining yana bir muhim jihati — ularning inson huquqlari bilan muvofiqligidir. Har qanday chora-tadbir fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklamasligi, balki ularni himoya qilishga xizmat qilishi kerak. Bunda profilaktika inspektorlari huquqiy savodxonlikka ega bo'lishi, har bir qarorining oqibatini chuqur anglab yetgan holda

harakat qilishi lozim. Bu esa o'z navbatida ularning malakasini doimiy oshirib borishni, zamonaviy yondashuvlar va psixologik metodlardan xabardor bo'lishini taqozo etadi. Profilaktika inspektorlarining faoliyatida jamoatchilik bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, mahalla fuqarolar yig'inlari, yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar qo'mitasi va boshqa ijtimoiy institutlar bilan tizimli hamkorlik o'rnatilsa, ma'muriy cheklov choralarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bunday yondashuv nafaqat jinoyatchilikni kamaytiradi, balki odamlar orasida ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, ma'muriy cheklov choralarining natijadorligini tahlil qilish, ularni baholash tizimini yaratish ham dolzarb masalalardan biridir. Har bir qo'llanilgan chora haqida statistik ma'lumotlar yig'ilib, ularning ijobiy yoki salbiy natijalari yuzasidan doimiy monitoring olib borilishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida takomillashgan, maqbullashtirilgan va eng samarali choralarning shakllanishiga xizmat qiladi. Yana bir muhim jihat shuki, hozirgi davrda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning ko'payishi profilaktika inspektorlarining bu qatlam bilan ishlash faoliyatini kuchaytirishni taqozo qilmoqda. Yoshlar orasida jinoyatchilikka moyillikni kamaytirish uchun ular bilan samarali muloqot o'rnatish, ishsizlik va bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish lozim. Bu borada inspektorlar faqatgina jazolovchi emas, balki tarbiyaviy, ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi rolni ham bajarmog'i lozim. Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorlarining ma'muriy cheklash choralarini qo'llash faoliyati samaradorligini oshirish — bu tizimli yondashuv, institutsional qo'llab-quvvatlash, huquqiy mustahkamlash va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifadir. Shuningdek, bu jarayonni faqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar zimmasiga yuklab qo'yish emas, balki butun jamiyatning faol ishtiroki orqali hal etish mumkin bo'ladi. Zero, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish — bu har bir fuqaroning, har bir jamiyat a'zosining burchidir. Profilaktika inspektorlarining faoliyati esa ana shu umumiy maqsadga xizmat qiluvchi muhim tizim sifatida har doim e'tibor markazida bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.** – Rasmiy nashr. – Toshkent: Adolat, 2024.
2. **Axmedov M.X. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va ijtimoiy nazoratning huquqiy asoslari.** – Toshkent: Akademiya, 2022.
3. **Qodirov I.R. Ichki ishlar organlarining profilaktika faoliyati: nazariya va amaliyot.** – Toshkent: O'zbekiston IIV Akademiyasi, 2021.
4. **Gadoymurodov O. B. Voyaga yetmaganlar ma'muriy javobgarligining bugungi kundagi dolzarbligi** - Analysis of world scientific views international Scientific journal.- 2024. -T.2. 5. - C. 90-95